Sarik dengiziga kuplab lyossli yotkiziklar keltirganda dengizning rangi sargish tusga kiradi.

Okean suvining ustki kismida xar bir kub sm dan 1 kg ogirlikda xavo bosimi bosadi. Bu mikdor 10,06 m chukurlikkacha uzgarmaydi. Undan chukurda xar 10 m dan bosim 1 atmosfera ortib boradi.

Turli xil omillar ta'sirida okean suvlari xarakatda bulib turadi. Sekundiga shamolning tezligi 1 m ga yetgach, xakikiy tulkin kuzatiladi. Tulkinlar janubiy yarim sharda kuchli chunki bu kism yaxlit tutash suvlardan iborat va doimo garbiy shamollar ta'sirida balandligi 13 m ga yetadigan tulkinlar xosil buladi. Tulkinning urtacha balandligi 4-4,5 m bulib, ba'zan Atlantika okeanida 16 m ga, Tinch okeanida 18 m ga yetadi. Okean vam dengizlarda, yer kimirlaganda tektonik xarakatlar ta'sirida kuchli tulkinlar yuzaga keladi. Ular sunami deyiladi. Uning balandligi 20-30 m, uzunligi 10 km, tezligi soatiga 800 km ga yetadi. Kupincha sunami kuchli falokatlariga sabab buladi.

Dengiz suvi xarakatining yana bir muxim okimlardir. Suv massalarining Dunyo okeanida bir joydan ikkinchi joyga kuchib yurishiga dengiz okimlari deyiladi. Okimlarning sababi shamoldir. Dengiz okimlari Dreyf (shamollar surib kelgan), kompensasion kuyilma okimlariga bulinadi. Dunyo okeanidagi eng katta okim Golfstrim okimidir.

16 – MAVZU: ICHKI SUVLAR.

R E J A

1. Yer osti suvlari.
2. Muzliklar.
3. Botkokliklar.
4. Kullar.
5. Daryolar.

Gidrosferadagi suvning umumiy mikdori 1 mlrd 454,5 mln kubg'km bulib, shuning atigi 85 mln kubg'km kuruklikdagi suvlarni tashkil kiladi.

Yer pusti katamlari ichida bulgan barcha suvlar yert osti suvlari deyiladi. Ular turli xolatda uchraydi. Yer osti suvlari grunt va yuvinel suvlariga bulinadi. Grunt suvlari yer yuzasidagi suvlardan, yoginlarda xamda xavodagi suv buglarining yer ichiga yoriklar orkali kirib, sungra kuyuklashib suvga aylanishidan xosil buladi. Bunday suvlar Vodoz yoki grunt suvlari.

Xaroratga kura issik (20-27 gradus) termal (37-42) va kaynok (42 dan yukori).

Yer ustida namgarchilikka moslashgan usimliklar usib yotadigan uta zax joylar botkokliklar deyiladi. Botkokliklarning geografik urni suv rejimi va usimliklarga kura gruppaga bulinadi.

Tabiiy chukurlikda xarakat kiladigan doimiy suv okimiga daryo deyiladi. Xar kaday daryoning boshlanadigan joyi yukori okimi, urta, kuyi okimi va kuyilishi joyi bor. Daryolar turli manbalardan boshlanadi. Bu xol uningsuv

rejimiga katta ta'sir kursatadi. Daryoning boshlanish joyiga yaqin bulgan kismi uning yukori okimi deyiladi. Bu kismda daryoning suvi tez okib nishobligi katta buladi. Urta kismida suvning tezligi kamayadi va daryo tekislik xarakatiga ega buladi. Daryoning kul yoki dengizga kuyiladigan joyi uning kuyilishi joyi deyiladi.

Ma'lum daryoga suv yigiladigan xudud shu daryoning suv xavzug'asi deyiladi. Bir daryo bilan ikkinchi daryo xavzasini bir biridan ajratib turadigan joylar suv ayirgichlar deyiladi. Ma'lum xavza xududidan okadigan bosh daryo va uning katta kichik irmoklari daryo sistemasini tashkil etadi. Daryolarning boshlanish yeridan kuyilishigacha bulgan umumiy masofasi uning uzunligi deyiladi.

Daryolar yer yuzasidan ish bajaradi, ya'ni tog jinslarin yuvadi, uzan tubini chukurlashtiradi, yemirilgan jinslarni okizib ketadi. Daryolar keltirgan jinslar allyuvii deyiladi. Daryo kuyar yerida allyuvii jinslar yotkizilib daryo tarmoklariga bulinib delta xosil kiladi.

Tg'S: yer osti, grunt, yuvinel suvlari, termal, tog muzliklar, materik muzlik, Botkoklik, kullar, daryo.

17 – MAVZU: B I O S F E R A.

R E J A

1. Biosfera xakida umumiy tushuncha.
2. Moddalar aylanishida biosferaning roli.
3. Biosferada organizm va muxitning tuzilishi.
1. Yerda xayotning paydo bulishi.
2. Biosenoz tuzilishi.

Biosfera xakida tushuncha.

Yer sharidagi tirik organizm tarkalgan va uning xayot faoliyati ruy beradigan joylar biosfera deb ataladi. Biosferaga juda ibtidoiy organizm bakteriyadan tortib odamgacha bulgan organizmlar kiradi. Biosferaga atmosferaning kuyi katlami gidrosferaga va yer pusitining (litosferaning) yukori kismi kiradi. Yukoriga xarakat kilayotgan xavo okimlari mikroorganizmlarni troposferaning yukori kismlarigacha (urtacha 10 km ba'zan 25-30 km) gacha olib chikadi. Yer putida anaerob (kislarodsiz yashaydigan) bateriyalar 3-5 km chukurlikda xam uchraydi. Okenda esa xayot uning eng chukur 11 km kismlaridan xam mavjuddir. Yer shari xayot kavatini birinchi bulib E. Zyuss biosfera deb atagan bulsada, lekin bu tushunchani ilmiy ravishda asoslab berishda V.I. Vernadskiyning xizmati katta bulgan.

«Biosfera» terminini turli ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'noda biosfera uz ichiga geografik kobikning xayot mavjud bulgan viloyatlarini oladi. Keng ma'noda esa biosfera ma'nosiga Yerning tashki kismidagi xayot mavjud bulgan joylardan tashkari, yana xayotning u yoki bu darajadagi uzgarishlari yuz bergan butun katlami kiritiladi. Bu jixatdan karaganda biosfera geografik kobikga tugri keladi. V.I. Vernadskiy biosfera xususiyatlarini urganib, tirik organizm, bu yer yuzasidagi eng kudratli geoximik kuchdir degan xulosaga keldi. U tirik organizmning kuyidagi beshta asosiy biogeoximik funksiyalarini asoslab beradi.

Yer pustining yukori kismidagi barcha gazlarni organizm vujudga keltirgandir. Atmosferadagi erkin kislarod fotosintez orkali yashil usimliklardan vujudga kelsa karbonat angidrid organizmlarning chikarishi maxsulidir. Vernadskiy ta'limotiga kura atmosferadagi azot biogen yul bilan vujudga kelgan bulsa, uglevadarod ma'lum darajada mikroorganizmlarning maxsulidir. Tirik moddalarning ikkinchi funksiyasi bu konsentrasyon funksiya xisoblanib, unga kura organizmlar uz tanasida juda kup ximiyaviy elementlarni tuplaydi.

Bu konsentrasyon funksiya xisoblanib unga kura organizmlar uz tanasida shu moddalarni tuplagan xolda xayot borligiga xissa kushadi. Ular kadimiy kosmik va xayvonlar koldigi negizida vujudga kelib, uglerod konsentori xisoblanadi.

Oksidlanish – tiklash funksiyasi bu ta'limotga kura juda kup ma'danlar jumladan, temir, oltingugurt, marganes, mis, azot, uran, kobalt, vannadiy, molibden, kabilarining oksidlanib tiklanishidan tirik moddalarning xususan mikroorganizmlarning ishtiroki bor.

Bioximik funksiya. Bu mustakil faktor xisoblangan insonning bioximik faoliyatidir. Ma'lumki texnika bilan kurollangan inson biosferada juda katta uzgarishlarni amalga oshirib, ba'zi xollarda uning salbiy xodisalarni (kayta chullanish, usimlik va xayvonlarning ba'zi turlarining yuk kilinishi, xavo, suv va tuprokning ifloslanishi va boshkalarni vujudga keltirmokda.

Tirik organizmlar katta geologik ish bajaradi.

V.I.Vernadskiy tirik organizmlarning geologik va yukorida kayd kilingan funksiyalarni urganib, atmosferadgi xozirgi azot va kislarodni vujudga keltirgan litosfera va gidrosferaning tarkibini uzgartirgan omil, bu tirik organizmlardir, degan ilmiy xulosaga kelgan.

Milliard yillar mobaynida tirik organizmlar ta'sirida katta xajmga ega bulgan tog jinslari nur ostida tuplanishi okibatida biogen kazilma boyliklar (kumir, fosforid, neft va b) vujudga kelgan. Yer pustining kup kisini tashkil kiluvchi barcha chukindi va tog jinslari xamda metomorfik jinslar bir vaktlar yer yuzasiga yakin joyda, biosferada tuplangan. Demak, ularga bevosita va bilvosita tirik organizm ta'sir etgan va bir-biri bilan ginetik boglik. Shu sababli yer pustidagi otkindi jins granit tarkalgan kisini V.I.Vernadskiy «ok biosfera»m deb atagan.

Chunki yerning geografik kobigi tarakkiyotida bioximik va geoximik prosesslarning sodir bulishida «tirik» organizmlarning goyat ishtiroki kattadir. Biosferaning tirik moddasi orkali xar yili planetamizda juda katta mikdorda katta mikdorda modda almashinishi sodir buladi. Natijada yerning geografik kobigida ancha katta uzgarishlar ruy beradi, organizmlar tog jinslarning nurashida, tuprok xosil bulishida, relf shakllarin uzgartirishida, ayrim jinslarning va ba'zi kazilma boyliklarning xosil bulishida xamda atmosferaning xozirgi tarkibini vujudga keltirishda ishtirok etadi.

Biosfera tirik organizmlari ikkiga bulinadi usimliklar va xayvonlar. Yer sharida usimliklar kup-ularning massasi xayvonlar massasidan bir necha marta ortik.

Yer sharida biomassa 100% bulsa shundan 94,5% usimliklar biomassasiga, atigi 5,5% xayvonlar biomassasiga tugri keladi. Biosferada usimliklar bilan xayvonlar orasida uzluksiz aloka mavjud. Usimliklar neorganik moddlarni organik

moddlarga aylantirib beradi, xayvonlar esa usimliklarni yeydi. Shu tarika aylanib yuradi, natijada xayotning borligi xech kanday faktorsiz anik buladi, iosferada tirik organizmlarning, ya'ni insonning, usimliklarning xayvonlarning ta'siri kattadir.

Biotik faktorga tevarak atrofdagi tirik mavjudodlarning organizmga kursatayotgan turli tuman ta'siri kiradi. Sunggi vaktlarda va insonning tabitaga kursatayotgan ta'siri kun sayin ortib bormokda. Shu jixatdan karaganda odam faoliyatni xam maxsus ekologik faktor deyish mumkin. Sayyoramizdagi tirik organizmlarning yashash tashki ya'ni ekologik faktorga xam juda boglikdir Brgaizm muxitsiz yashay olmaydi. Organizm usimliklar, xayvonlar uz navbatida muxit bilan uzluksiz almashinuv jarayonida tevarak atrofdagi geografik sharoitiga ta'sir etib, tabiiy muxitni uzgartiradi, muxit ruy beradigan uzgarishlar esa, uz navbatida organizmlarda muxitga moslanishlarni keltirib chikaradi. M: fotsintez tufayli kislarodga boy xozirgi atmosfera vujudga kelgan. Atmosferaning vujudga kelishi xozirgi organizmlarning shu sharoitga moslashib yashashga olib kelgan.

Usimlik va xayvonlar evalyusiya jarayonida usha tropik sharoitiga moslashgan, organizmlar bilan muxit urtasidagi uzviy alokalarining yaxshi kursatkichi xam organizmning barcha xususiyatlarini shakli, rangi, fiziologik funksiyalari, yashash tarzi, va boshkalarni uz ichiga oladi. Organzmning muxitga moslashishi organik dunyoning moslashish organik dunyoning rivojlanish jarayonida uzok davrli tabiiy tanlanishning tarixiy samarasidir.

YERDA XAYOTNING PAYDO BULISHI VA RIVOJLANISHI.

Tirik mavjudotlar organik moddalardan tuzilgan bulib, bu organik moddlarning negizida uglerod bor. Shu tufayli xayotning paydo bulishi tarixi, uglerodning paydo bulish tarixi bilan chambarchas boglik bulgan. Akademik A.I.Oparin uglerod tarixiga tuxtab, u kiyin eriydigan boshka elementlar, eng avallo metallar bilan kizigan olov xolidagi suyuq karbitlar xosil kilgan deydi.

Issiklikning issiklikdan erigan karbitlar bu katlamni yorib chikib, yer yuzasiga yoyilgan. Ularning atmosferadagi uta kizigan suv buglari bilan uzaro ta'sir okibatida juda kup uglevodlarlar vujudga yelgan. A.I. Oparinnning bu fikrini ximiklar laboratoriyada karbilarni yukori temperaturada suv bugi ta'sirida uchratib, uglevodlardan xosil kilib, isbot etdilar.

Kadingi zamonlarda yer yuzasida temperatura uzok vaktgacha yukori bulganligidan uglevadarodlar atmosferadagisuv buglari va ammiaklar bilan radiasiyaga kirishgan. Natijada uglevodorod vodorod, kislarod va azotdan iborat murakkab birikmalar organik moddalar xosil bulgan. U vaktida organik moddalar gaz shaklida Yer atmosferasi tarkibiga kirgan.

Kuyosh va Oyning tortish kuchi bosimning xar xilligi tufayli atmosfera massasini xarakatga keltirgan va natijada shamol, buronlar paydo bulib, Yer ustida chakmok chakib momakaldirak bulib turgan. Ammiak metan, suv bugi va vadoroddan iborat bulgan atmosferada A.I.Oparinnning fikriga kura, kuchli elektr uchkunlari ta'sirida xayotning paydo bulishi uchun zarur organik moddalar vujudga kelgan bulishi mumkin. Olimning fikricha extimol bu moddalar gaz xolatda bulib, avval atmosfera tarkibida bulgan.

Atmosferadagi gazsimon organik moddalar yomgir bilan birga erimatga aylangan. Yer ka'rida karbonat angidrid ajralib chikib, atmosferaga kutarilgan xamda metan va ammiak bilan birikmalar xosil kilib suvda erigan. Svu muxitiga tushgan eng oddiy organik moddalar esa (buni M.A.Butlerov va A.N.Bax laboratoriyada isbotlagan) kand va oksil kabi ancha birikmalarga aylanishi mumkin.

Oksil tirik moddaning eng muxim tarkibiy kismi. Shu tufayli oksillarga uxshash moddalarning vujudga kelishi xayotning paydo bulish prosessidagi eng birinchi boskichlardir.

A.I.Oparin fikriga kura oksil moddalar eritmalarida kuyuk tomchilar shaklida yirik va murakkab molekulali koaservanlar shaklida ajralgan xamda organik moddalar serob bulgan issik va sayyozrok suv xavzalarida suzib yurgan. Olimlar xozir laboratoriyada turli oksillar, masalan jeletin, gummiarabikili suvli eritmalarda aralashtirib yukorida kayd kilingan konservantlarni olmokdalar.

Konservantlar tashki muxitdagi xar xil birikmadlarni uziga singdirish va boglash kobiliyatiga ega bulgan kolloid moddalardir. Yer sharida oksil moddalar vujudga kelgan suv xavzalarida konsevanlarning paydo bulishi muxim vokea buldi, chunki organik birikmalarning ilgari bir tekis taksimlanishi urniga endi ular eritmada tomchiga uxshab tup -tup bulib koldi.

Koaservat tomchilar uz strukturasiga ega bulgan kandaydir aloxida narsa bulib, xar bir tomchi tashki muxitdagi xar xil birikmalarni uziga singdrishi va boglash kobiliyatiga ega bulgan. Demak koaservat tomchilar tevarak atrofdagi muxitdan xar xil moddalarni uzlashtirib olib kattalashib, kuyuklashib, mustaxkamlanib borgan. Natijada shunday tomchilar paydo bulganki ularning ichki tuzilishi va tarkibi shu tomchilarning barkaror bulib, uzak vakt yashashigina emas, balki usishi va bulinib kupayishiga ya'ni usi xamda bulinib kupayish xususiyatiga ega bulgan ikki tomchi ajrralishiga imkon bergan. Shunday kilib dinamik jixatdan barkaror va bulinib kupayish xususiyatiga ega bulgan. Tomchining vujudga kelishi okibatida murakkab ammo jonsiz organik xosila tirik mavjudotga aylangan. Bu mavjudotlarning ichki tuzilishi xam vakt utishi bilan toboro murakkablashib borgan xamda oziklanish nafas olish usish va kupayishga toboro moslashgan. Okibat natijada dastlabki tirik organizmlar paydo bulganki, ular butun organik olamga asos solgan. Buning uchun orada ming ming yillar utdi.

Yer sharida usimliklar bilan bulmagan xayvonlar bulmagani kabi, xayvonsiz usimliklar xam yuk. Xayvon va usimliklar xar xil gruppalardan iborat bulsada, lekin ular (xayvonlar va usimliklar) dunyosi bir butun yashab, doimo alokada va uzaro munosabatdadir. Bu joyda paydo bulgan va bir biri bilan uzviy alokada rivodjlangan xayvonlarning mikroorganizmlarning va usimliklarning barkaror Turkumi BIOSENOZ deyiladi.

Urmon, dasht, chul va boshkalar biosenozga yakkol misoldir. Biosenoz negizini tirik moddani xosil kiladigan yashil usimliklar tashkil etsa xam, lekin tirik organik moddani istemol kiluvchi xayvonlar va mikroorganizmlar biosenozda albatta ishtirok etadi. Demak biosenozga kiradigan turlar va jinslar uzlarining yashashi va kupayishi uchun zarur bulgan xamma narsani mazkur biotokdan oladi.

Biosenozlarning muxim belgisi-ekologik sistemada birgalikda xayot kechirayotgan turlar soning uz-uzidan «avtomatik» ravishda boshkarilishidir.

M: usimlik turlari iklim va tuprok sharoitiga boglik xolda oz yoki kup buladi. Xayvon turlarining soni asosiy ozik bulgan usimliklarning oz kupligiga boglik. Usimliklar bilan oziklanadigan bir xil xayvonlar yirtkich xayvonlar uchun ulja buladi. Demak biosenoz usimliklari kancha kup bulsa, uning xayvonlari xam shuncha kup va xilma xil buladi. Biosenozda turlarning uz uzini boshkarishda mikroorganizmlar tipik misol buladi. Organik koldiklarda bakterialar uchraydi bakteriyalarning kupayishi infuzoriyalarning tez uchrashi uchun kulay sharoit tugdiradi. Infuzoriyalar bakteriyalarni yuk kiladi, bakteriyalar kupaygach, ozik yetishmasligi tufayli infuzoriyalar xam kamayadi. Organizmning muxitga mos kelishi uning xayot formulasi deyiladi.

Kserofitlar, efemerlar, mezofitlar va boshkalar usimliklarning xayot formalari xisoblanadi. Xayvonlarning xam xayot formalari mavjud bulib ularni bir kancha alomatlarga karab klassifikasiya silish mumkin. M: sovuk konlilar va issik konlilar xayvonlarning iklimi bilan boglik xayot formalari xisoblansa xayvonlar oziklanishiga karab ut xur, yirtkich kabi turlarga bulinadi. Xayvonlar shuningdek yashash sharoitiga karab kuruklikda, daraxtda suvda yashovchi turlarga bulinadi.

Suv biosenozlari yashash sharoitlariga karab ikita asosiy bioxurlar gruppasiga bental bioxurga kiradi. Bental organizmlari bentoz deyiladi. Pelagial bioxur organizmlari yana ikki gruppaga plankton va nektonga bulinadi. Suvda passiv suzib yuradigan (suv okizib yuradigan) barcha mayda organizmlar plankton deb ataladi.

Suvda uzlari suzib yuradigan organizmlar esa nehton deb ataladi. Bakteriyalar bakton plankton organizmlarga tipik misol buladi, bir litr suvda bir necha mln indivetga yetarli, shu sababli suv xavzasidagi planktonning umumiy biomassasi juda katta.

18. Mavzu: GEOGRAFIK KOBIKNING GORIZONTAL TUZILISHI.

R E J A

1. Geografik kobikning gorizontal yunalishida tabakalanishining asosiy omillari.
2. Mintakaviy zonal tuzilmalar.
3. Zonallik.

Geografik qobiqning gorizontal tuzilishi uning vertikal tuzilishidan keskin farq qiladi. Geografik qobiqning bo'ylama tuzilishining asosiy omili bo'lib, moddaning zichligi va holati xisoblanadi.

Eng qattiq va zich moddalar litosferadi, o'rtacha zichlikka ega bo'lgan suyuq moddalar gidrosferani, zichligi juda kam bo'lgan, gaz

holdagi moddalar atmosferani va tirik moddalar esa biosferani tashkil qiladi.

Geografik qobiqning ko'ndalang yo'nalishdagi tabaqalanishi geotizimlarni tarqalishiga bog'liq.

Geotizim yoki tabiiy xududiy majmua deb, yaxlit bir butun tizimdan iborat bo'lgan geografik tarkiblarning qonuniy uyg'unligiga aytiladi.

Geografik qobiqning ko'ndalang yo'nalishdagi tabaqalanishi planetar, regional va mahalliy miqyoslarda sodir bo'ladi. Planetar miqyosdagi tabaqalanishning asosiy omili bo'lib quyidagilar xisoblanadi:

1) Yerning sharsimonligi. Mazkur omil tabiiy geografik jarayonlarni mintaqaviy zonal tarqalishini keltirib chiqaradi.

2) Quruqlik, okean va muzliklarning tarqalishi. ular tufayli yer yuzasida tabiiy geografik jarayonlarning xilma-xilligi vujudga keladi. Koriolis kuchi geografik qobiqda moddaning harakat yo'nalishiga ta'sir ko'rsatadi.

Region miqyosida geografik qobiqning tabaqalanishida materik va okeanlarning joylanishi hamda qiyofasidagi farqlar muhim o'rin tutadi. Ular ta'sirida namlik va issiqlik taqsimlanadi, atmosfera va okean harakatlari vujudga keladi, geografik zonalar o'ziga xos ravishda joylashadi.

Mahalliy miqyosda geografik qobiq tabaqalanishidagi asosiy omillar bo'lib, relyefning tuzilishi, tog' jinslarining tarkibi va ularning fizik-ximik xossalari, yon bag'irlarning shakli va ekspozitsiyasi, namlanish turlari va boshqalar xisoblanadi. Ular ta'sirida kichik xududlarda turli xil xususiyatga ega bo'lgan geotizimchalar vujudga keladi.

Yerning sharsimonligi tufayli yer yuzasida quyosh issiqligi va nurlari notekis taqsimlanadi, bu geografik qobiqda mintaqaviylikni

keltirib chiqaradi. Natijada yer yuzasidagi barcha tabiiy geografik jarayonlar mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'ladi. Ular kengliklar bo'yicha tarqaladi. Geografik qobiqda iqlim ko'rsatkichlari, o'simlik guruhlari, tuproq turlari uchun hodisa va jarayonlarning bunday tarqalishi qonuniydir.

Quyosh nurlarning yer yuzasiga tushishi atmosferaning xolatiga bog'liq. Atmosferaning ba'zi joylari tiniq, ba'zi joylarida changlar va nam ko'p bo'ladi. Demak, quyosh nurlarini ekvatordan qutiblar tomon kamayib borishiga atmosferaning tiniqlik darajasi ham ta'sir etadi. Yer yuzasida haroratning taqsimlanishi quyosh issiqligiga bog'liq, ammo haroratning taqsimlanishiga yer yuzasining issiqlik sig'imi ham ta'sir qiladi. Shuningdek, okean va havo oqimlarining ham ta'siri bor.

19. Mavzu: GEOGRAFIK KOBIKNING XARAKATLARI.

R E J A

1. Xarakat manbalari va turlari.
2. Geografik kobikda Quyosh issikligi va Yerning ichki issikligi.
3. Atmosferadagi xarakatlar.
4. Yer yuzasida issiklikning taksimlanishi bilan boglik jarayonlar.

Geografik qobiqda ichki va tashqi kuchlar hamda zona va azona omillar ta'sirida turli xil xarakatlar sodir bo'lib turadi. Mazkur harakatlar asosida moddiy ob'yektlarning o'zaro ta'siri yotadi.

Geografik qobiqda moddiy ob'yektlarning o'zaro ta'siri 4 turga ajratiladi:

- 1) Kuchsiz va yadroviy o'zaro ta'sir. Mazkur harakatlar moddalarning subatom holati darajasida namoyon bo'ladi;

2) Elektromagnit o'zaro ta'sir. Bu ta'sir natijasida jismlarning isishi va muzlashi, kapillyarlarda suyuqliklarning harakati, kimyoviy reaksiyalar va moddalarning agregat holati o'zgarishi ro'y beradi.

3) Gravitasion o'zaro ta'sir. Bu ta'sir natijasida suvning qalqishi, daryolarda suvning harakati, yog'in yog'ishi sodir bo'ladi, yer yuzasida atmosfera hosil bo'lib turiladi.

4) Elektromagnit va gravitasion o'zaro ta'sir birgalikda ro'y berib geografik qobiqning tuzilishini belgilab beradi.

Geografik qobiqda harakatlarning ikkita yirik turi ajratiladi:

1) Geografik qobiqning kundalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan harakatlar. Geografik qobiqning faoliyati natijasida uning o'lchamlarining dinamik muvozanati vujudga keladi. Juda ko'p omillarning ta'siriga qaramasdan troposferada, okeanda, quruqlikda havo harorati tarkibi, suvlarning sho'rliги nisbatan doimiy darajada turadi.

2) Geografik qobiqdagi aniq harakatlar, ularning sodir bo'lishi. Geografik qobiqda erkin energiya borligi bilan bog'liq va ular yerning har bir qobig'ida o'zigi xos tarzda ro'y beradi.

Yer yuzasiga fazodan quyosh va osmon jismi issiqligi keladi. Shuning 97% ni quyosh issiqligi tashkil qiladi. Mazkur issiqlik quyoshning elektr magnit nurlarin tarqatishi natijasida vujudga keladi.

Quyoshdan keladigan elektr magnit nurlar turli xil uzunlikdagi to'lqinlardan iborat.

Ultraqisqa to'lqinli nurlar ($<0,1027\text{mKm}$) atmosferaning 100-200 km balandlik qatlamlarigacha kirib keladi va molekulalarni ionlashishiga sabab bo'ladi.

Uzun to'lqinli nurlar $0,1027-0,24\text{ mKm}$. Atmosferaning 70-80 km balandlikdagi qatlamigacha tushib keladi va radiasiyaning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Ultrabinafsha nurlar 0,25-0,29mKm 15,25km balandlikda ozon qatlami tomonida to'la yutiladi. Mazkur nurlar strotosferani qizdiradi. Ular ionosfera va ozonosferani hosil qiluvchi asosiy nurlardir.

Yaqin ultrabinafsha to'lqinlar 0,29-0,40mKm yorug'lik nurlari va infraqizil nurlar yer yuzasiga bimalol yetib keladi va geografik qobiqdagi fotoximik va termoximik reaksiyalar hamda radioto'lqin nurlanishini keltirib chiqaradi.

Geografik qobiqqa quyoshdan tushayotgan issiqlik miqdori nurlarning tushish burchagiga quyoshning sutka davomida yoritish davrining uzunligiga va fasllarga bog'liq.

20. Mavzu: GEOGRAFIK KOBIKDA SUVNING HARAKATI.

R E J A

1. Geografik kobikda suvning aylanma xarakati.
2. Okean okimlarining xarakati.
3. Atmosferada suvning xarakati.
4. Xujalikdagi suvning xarakati.
5. Geografik kobikda suvning muvozanati.

Geografik qobiqda suvning aylanma harakati muhim ahamiyatga ega. Suv harakati vaqtida yer yuzasidagi turli relyef shakllarini yemiradi, juda katta miqdorda issiqlik va mineral moddalarni bir joydan ikkinchi joyga olib ketadi. Okeanlarda quruqlika doimo suvni bug'lanib, atmosfera orqali kelib turishi natijasida daryolar, ko'llar, botqoqliklar, muzlar va yer osti suvlari hosil bo'ladi. Gidrosferadagi suvlar mantiyada moddalarning gravitasion tabaqalanishi natijasida ajralib chiqqan, bu jarayon xozir ham davom etayapti. Geografik

qobiqda suvning harakati turli shakllarda ro'y berib turadi. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

GEOGRAFIK QOBIQDA SUVNING AYLANISHI

№	Suvning turlari	To'la aylanish davri, yil
1	Дунё океани	2500
2	Ер ости сувлари	1400
3	Тупро=даги намлик	1
4	+утбий музликлар ва доимий =ор =оплами	9700
5	То\ музликлари	1600
6	Кып йиллик музликдаги ер ости музлари	10000
7	Кыл сувлари	17
8	Бот=о= сувлари	5
9	Дарё сувлари	16 кун
	Биологик сув	Бир неча соат
	Атмосферадаги нам	8 кун

Okean oqimlarining harakati.

Okeanlarda suv domo harakatda bo'ladi va bu harakat vertikal va gorizontal yo'nalishda sodir bo'ladi. Natijada okean tubi va yuzasidagi suvlar o'zaro almashinadi. Okean suvlarning gorizontal harakati natijasida juda katta masofalarga issiqlik va moddalar olib boradi.

Okean suvlari harakatining asosiy omillari ikkiga bo'linadi:

1) Mexanik omillar. Unga shamol, havo bosimining notekis taqsimlanishi va boshqalar kiradi.

Shamollar ta'sirida okeanga dreyf oqimlari hosil bo'ladi.

Okeanning bir qismida bosim yuqori bo'lsa okean sathi pasayada, atmosfera bosimi past joylarda esa okean sathi ko'tariladi. Natijada oqim vujudga keladi.

2) Termoxalin omillar. Unga issiqlikning kelishi va ketishi. ëg'inlar, bug'lanish, materik suvlarining kelishi va boshqalar kiradi. Natijada quyilma, xaydalma, zichlik va kompensasion omillar vujudga keladi.

Atmosferada suvning harakati.

Atmosfera hamma suv havzalarini yaxlit suv aylanish tizimiga birlashtirib turadi. Atmosferani harakatlanganligi tufayli suv almashinishi tez sodir bo'ladi. Bir yilda atmosferadagi suv 45 marta to'la almashinadi, ya'ni har 8 kunda atmosferadagi suv yangilanib turadi. Atmosferaga suv asosan bug'lanish tufayli o'tadi. Har yili yer yuzasiga 5771012m³ ëg'in tushsa shuncha miqdordagi suv bug'lanadi. Uning asosiy qismi okeanlar ustidan ko'tariladi.

21. Mavzu: BIOLOGIK VA BIOKIMYOVIIY AYLANMA HARAKATLAR.

R E J A

1. Modda va issiklikning aylanma xarakatida organizmlarning urni.
2. Ozuka zanjiri.
3. Biokimyoviy xarakatlar.

Organik moddalarning vujudga kelishi va uning parchalanishi jarayonida biosferadagi mineral moddalar, suv, har xil gazlar va energiya harakatga keladi. Tirik organizmlarning harakati tufayli atmosferadagi karbonat-angidridning asosiy qismi organik birikmalar tarkibiga jalb etiladi. Shu jarayon ta'sirida yer yuzasida juda katta miqdorda kimyoviy energiya to'planadi, atmosferada erkin kislorod miqdori ko'payib ozon ekrani vujudga keladi, xosildorlik xususiyatiga ega bo'lgan tuproq hosil bo'ladi, hamda yer po'stining yuqori qismida organizmlar qoldig'iga boy cho'kindi tog' jinslari to'planadi. Bir biriga qarama-qarshi bo'lgan organik moddaning vujudga kelishi va parchalanish jarayoni moddalarni aylanma biologik o'rin almashinuvini vujudga keltiradi. Agar bu o'rin almashinuviga kimyoviy elementlarni (uglerod, azot, kislorod va ho.) migrasiyasi sifatida qaralsa bunday o'rin almashinuvini biokimyoviy o'rin almashinuv desa bo'ladi.

Biologik o'rin almashinuv fotosintez jareni bilan bog'liq.

Geografik qobiqda modda va energiyaning biologik o'rin almashinuvidan tashqarii geologik o'rin almashinuvi ham bor.

22. Mavzu: GEOGRAFIK KOBIKDAGI DAVRIY HARAKATLAR.

R E J A

1. Xarakat turlari.

A) Davriy;

B) Majburiy;

V) Mustakil.

2. Tabiiy geografik xodisalarning davriyligi.

Litosferaning turli qismlarida moddalarning doimiy harakatlar sodir bo'lib turadi. Mazkur harakatlar 2 yo'nalishda ro'y beradi:

Ko'ndalang yo'nalishda yer yuzasida, ya'ni litosferaning ustida sodir bo'ladi;

Bo'ylama yo'nalishda esa moddalarning harakati litosferaning ustki va yuqorigi qismlari orasida ro'y beradi.

Moddalarning yer yuzasidagi harakati daryolar, muzlar orqali ro'y beradi. Masalan, daryolar har yili juda katta miqdordagi moddalarni loyqa sifatida bir joydan ikkinchi joyga olib ketadi. quruqlik yuzasida har yili 14 mlrd. t loyqa, 1,5-2 mlrd. t erigan oqiziqalar yotqaziladi.

Tog'larda odatda denudasiya juda tez sodir bo'ladi. Amudaryo, Xuanxe va Nil daryolari loyqa miqdorining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Yer yuzasining yemirilishi muzlar ta'sirida ham ro'y beradi. Ularning ahamiyati ayniqsa muz bosish davrida katta bo'lgan. Harakatdagi muzlik yumshoq jismlarni surib qattiqlarini yemiradi. Tog' jinslarini parchalarini 10, 100 hatto minglab km ga olib ketadi. Antarktidada muzlar tog' jinslarini materik chekkasiga tomon surib boradi so'ngra aysberglar okean tomonga olib ketadi.

Hozirgi vaqtda quruqlikning 10% qismi muzlik yotqiziqlari bilan qoplangan. Ular asosan morena va suv-muz yotqiziqlaridan iborat.

Litosferadi moddalar yer yuzasi bilan mantiya o'rtasida o'zaro bog'liq almashinuvlar ta'sirida ham harakat qiladi. Bular vulqonlar va zilzilalar orqali namoyon bo'ladi. Vulqonlar yer yuzasi tabiatini shakllanishida muhim o'rin tutadi. Hozir yer yuzasida 800 dan ortiq so'nmagan vulqonlar bor. Ular har yili 3-6 mlrd. t turli moddalar chiqarib tashlaydi.

Bir yilda yer yuzasida 100 ming martalab zilzila sodir bo'ladi. Oxirgi 30-40 yil davomida zilzila tufayli 15 mln. ga yaqin odam halok bo'lgan.

Yer po'stida tebranma harakatlar ham sodir bo'lib, ular ta'sirida yer yuzasining bir qismi asta-sekin cho'ksa, ikkinchi qismi ko'tariladi, ya'ni vertikal harakatlar sodir bo'ladi.

23. Mavzu: GEOGRAFIK KOBIKNING RIVOJLANISHI.

R E J A

1. Rivojlanish manbalari.
2. Geosferalarning shakllanishi.
3. Yerda xayotning paydo bo'lishi.
4. Geografik kobik rivojlanishining asosiy boskichlari.

Geografik voqea va xodisalarning hamda ularning xilma-xilligini kuchaytiradigan va murakkablashtiradigan, bir tomonga yo'nalgan va qaytarilmas o'zgarishlarga geografik qobiqning rivojlanishi deb ataladi. Geografik qobiqning rivojlanishi to'xtovsiz jarayon bo'lib uning boshlanishini aniqlash shuda shartli xisoblanadi. Ko'p olimlar tomonidan yerni sayyora sifatida vujudga kelgan davri uni rivojlanishini boshlanishideb qabul qilingan.

Geografik qobiqning rivojlanishi juda notekis ro'y beradi. Sekin-asta va evolyusion o'zgarishlar keskin inqilobiy o'zgarishlar bilan almashinib turadi.

Geografik qobiqni rivojlanishini o'rganishda poleogeografiya va tarixiy geografiya, paleontologiya va boshqa fanlarning o'rni katta.

Qadimgi davrlarning tabiiy geografik sharoitini o'rganishda yer po'stining tuzilishi va xususiyatlarini hamda tog' jinsi qatlamlarini yotishini o'rganish juda muhim ma'lumotlarni beradi. Tektonik va vulkanik harakatlar ham geografik qobiqning rivojlanish tarixini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Geografik qobiqni yaxlit tizim sifatida rivojlanishi yerni sayyora sifatida rivojlanishidagi qadimgi bosqichi hisoblanadi. Geografik qobiqdagi rivojlanishning asosiy manbai bo'lib quyosh issiqligi xosoblanadi. Quyosh issiqligini geografik qobiqda notekis taqsimlanishi natijasida yer yuzasida xilma-xil tabiiy geografik sharoitlar vujudga kelgan.

24 – MAVZU: JAMIYAT VA GEOGRAFIK MUXIT.

R E J A

1. Geografik qobiqning inson tomonidan uzgartirilishi.
2. Geografik muxit xakida tushuncha.
3. Atrof-muxit monitoringi.

Insonning paydo bulishi Yerning geografik qobiqi tarakkiyotida eng muxim voqealardan biridir chunki inson uzining xujalik faoliyat natijasida yer shari geografik qobigini uzgartiradi. Odam ancha tarakkiy etgan odamsimon maymunlar paydo bulgan degan fikrlar mavjud. Dastlabki odamlar odamsimon maymunlarning Astro lopitiklar turidan paydo bulgan. Bu jarayon miloddan taxminan 4 mln yil ilgari sodir bulgan.

Avstolopiteklar geografik muxitga moslashuvi natijasida navbatdagi muxim boskich «XOMO EREKTUSNI» (kaddi rostlagan odamni) vujudga keltirgan. Bunday odamning suyaklari 18921 yil Yava orolida topilgan, uni pitenkontrop deb ataladi.

Pitenkontropning biologik tipi turli tarakkiyot boskichlaridan utib sinantrop odam va neondertal odamdan utib taxminan 1 mln yil ilgari xozirgi odam tipi vujudga kelgan.

Tabiiy sharoit ta'sirida Yer sharining turldi joylarida yashagan odamlar tashki kiyofasi jixatidan bir birlaridan fark kila boshlaganlar, ya'ni irklar paydo bulgan.

Uning axolisi 3 ta asosiy irkka bulinadi. Bu 3 irk vakillari anotomik-fiziologik jixatdan bir birlaridan fark kilmaydilar xar xil irk vakllarining chatishish natijasida oralik irklar paydo bulgan.

YEVROPOID IRKI. Sovuk va kuyosh radiasiyasi uncha kuchli bulmagan joylarda yashagan xalklarning badani ok, burin kataklari kichik, ya'ni sovuk iklim sharoitida sekin nafas olishiga moslashgan. Yevropoid irki ikkita kichik irkka bulinadi.

A) shimoliy irk – Skandinaviya yarim orolidagi va Boltik dengizi atrofida yashovchi odamlar shimoliy irkka kiradi.

B) janubiy kichik irkka esa Xindiston, Afgoniston, Urta Osiyo, Kavkaz, Urta dengiz atrofi va Urta Yevropada yashaydigan kora sochli odamlar yashaydi.

MONGOLOID IRKI. Yer sharining kuruk, issik, seroftob, xamda kattik shamol esadigan chang tuzonli xududlarda yashashga moslashib tanalari sarik, kuzlari kisik buladi. Bu irk xam ikkita kichik irkka bulinadi.

A) Osiyo kichik irkiga – Urta Osiyo, Mongoliya, Xindixitoy, Indrnezziyada yashovchi xalklar xamda Buryatlar, Yakutlar, tuvalar, evenklar, chukchalar, eskimoslar, va boshkalar kiradi.

B) Amerika kichik irkka esa indeyslar kiradi.

NEGROID IRKI. Yer sharining yil buyi issik, senam, kuyosh radiyasiyi intensiv bulgan yerlarda kora tanli, jingalak sochli keng burunli, kalin labli odamlar yashaydi. Bu irkka kiruvchi odamlarning tanasida pigmentlar kup bulib, pigmentlar kishilarni kuyoshning ultrabinafsha nurlaridan saklaydi. Sochning jingalakligi esa boshning oftobdan xaddan tashkari kizib ketishidan saklaydi. Bu irk xam ikkita kichik irkka bulinadi.

A) Afrika kichik irki.

B) Okeaniya kichik irki.

Kishilik jamiyatining tarakkiyoti muxit bilan chambarchas boglik. Inson tabiatning bir kismi bulib, unda yashaydi va yashashi zarur bulgan barcha narsalarni tabiatdan oladi. Kishilik jamiyati tarakkiyotida geografik muxitning rolini belgilashda bir biriga karama karshi ikki okim mavjud.

Indialistik okim tarafdorlari, kishilik jamiyati tarakkiyotida geografik muxit xal kiluvchi kuch deb karaydilar. Ularning fikricha kishilarning turmushi, axloki, va xatto jamiyat tuzish formasi xam geografik muxitga boglik. Bu nazariya geografik determinizm deyiladi.

Dialktik materialistik okim tarafdorlari esa geografik muxit jamiyat rivojlanishida doimiy va zaruriy shartlardan biri bulib, uning tarakkiyotiga ta'sir etadi, lekin jamiyatning iktisodiy, siyosiy tuzumi, xarakterini belgilay olmaydi deb xisoblaydilar.

Geografik muxit kishilik jamiyatiga ta'sir etib uning tarakkiyotini sekinlashtirish yoki tezlashtirish mumkin. M: iklim sharoiti kulay, tuprogi unumdor yerlarida iklimi sovuk, tuprogi kam unum yerlarga nisbatan dexkonchilikni rivojlantirish kulay.

Inson tabiatga ta'sir kursatadi. Bu ta'sir darajasi kishilik jamiyatining tarakkiyot darajasiga boglik.

A D A B I Y O T L A R.

1. KALESNIK S.V. Umumiy yer bilimi kiska kursi. T., 1967.
2. MILKOV F.N. Obsheye zemlevedeniye. M., 1990.
3. SHUBAYEV L.G. Umumiy yer bilimi. T., 1975.
4. GERENCHUK K. i dr. Obheye zemlevedeniye. M., 1984 g.
5. VAXOBOV X. va b. Umumiy yer bilimi. T., 2005.
6. BARATOV P. Yer bilimi va ulkashunoslik. T., 1990.
7. ZOKIROV SH. Kichik xududlar geografiyasi. T., 1999.

8. GULOMOV P.N. Inson va tabiat. T., 1990.

MUNDARIJA

1- mavzu: Kirish. Geografiya fani haqida tushuncha.....	mavzu:
Yer va koinot.....	
3- mavzu: Yerning shakli va kattaligi.....	
4- mavzu: Yerning harakatlari va uning	
oqibatlari.....	
5- mavzu: Geografik qobiq.....	
6- mavzu: Geografik qobiqning vertikal tuzilishi.	
Litosfera.....	
7- mavzu: Umumsayyoraviy relyef shakllarining joylashuvi.....	
8 – mavzu: Yer yuzasining asosiy relyef shakllari.....	
9 – mavzu: Atmosferaning tarkibi va tuzilishi.	
Quyosh radiatsiyasi.....	
10 – mavzu: Havo bosimi.....	
11 – mavzu: Shamollar.....	
12 – mavzu: Havoning namligi va yog`inlar.....	
13 – mavzu: Ob-xavo va iklim.....	
14 – mavzu: Dunyo okeani.....	

15	–	mavzu:	Ichki suvlar.....
16	–	mavzu:	Biosfera.....
17	–	mavzu:	Geografik qobiqning gorizontal tuzilishi.....
18	–	mavzu:	Geografik qobiqning harakatlari.....
19	–	mavzu:	Geografik qobiqda suvning harakati.....
20	–	mavzu:	Biologik va biokimyoviy aylanma harakatlar.....
21	–	mavzu:	Geografik qobiqdagi davriya harakati.....
22	–	mavzu:	Geografik qobiqning rivojlanishi.....
23	–	mavzu:	Jamiyat va geografik muhit.....
A d a b i y o t l a r.....			

